

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

RAYIMOV OHUNJON HAMID O'G'LI

**FARG'ONA VILOYATI SHAROITIDA QORAMOLLAR
TREMATODOZLARINING TARQALISHI VA OLDINI OLISH
CHORALARI**

03.00.06 – Zoologiya

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary
sciences**

Rayimov Ohunjon Hamid o'g'li

Farg'ona viloyati sharoitida qoramollar trematodozlarining tarqalishi va
oldini olish choralari..... 3

Райимов Охунжон Хамид угли

Распространение и профилактика трематодозов крупного рогатого
скота в условиях Ферганской области..... 21

Rayimov Ohunjon Hamid o'g'li

Distribution and prevention of trematodosis in bovis in Fergana region..... 38

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 41

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

RAYIMOV OHUNJON HAMID O'G'LI

**FARG'ONA VILOYATI SHAROITIDA QORAMOLLAR
TREMATODOZLARINING TARQALISHI VA OLDINI OLISH
CHORALARI**

03.00.06 – Zoologiya

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/V70 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Taylakov Tolip Isakulovich
veterinariya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mavlonov Sobir Ibodullayevich
veterinariya fanlari doktori, professor

Isayev Jasur Muzaffarovich
veterinariya fanlari falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

SamDTU huzuridagi I.M.Isaev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «6» 09 soat «14⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14344 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; Fax: +998662347686).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «22» 08 kuni tarqatildi.
(2025 yil «22» 08 dagi № 14344 - raqamli reestr bayonnomasi)



X.B.Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, biol.f.d., professor

K.X.Urokov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, vet.f.f.d (PhD), dotsent

Q.N.Norboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda chorvachilik sohasining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan qoramolchilik aholini sifatli go'sht, sut va yog' mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Hayvonlarning trematodoz kasalliklari, shu jumladan, qoramollarda *Fasciola gigantica* va *Fasciola hepatica* tomonidan qo'zg'atiladigan fassiolyoz qoramolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. «Bugungi kunda fassiolyozning o'tkir kechishida 100% samara beradigan preparat mavjud emas»¹. Kasallik oqibatida hayvonlarda mahsuldorlik va pushtdorlik ko'rsatkichlarining pasayishi, majburiy so'yilish holatlarining ko'payishi qoramolchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar va xususiy chorvadorlarning katta iqtisodiy zarar ko'rishiga olib keladi. Bunday holat, tabiiyki qoramollar trematodozlariga qarshi ilmiy asoslangan qarshi kurash chora – tadbirlarini ishlab chiqishni taqoza etadi.

Dunyo miqyosida keyingi yillarda ekologik va antropogen omillar ta'sirida yirik va mayda shoxli hayvonlar gelmintlari, shu jumladan, qoramollar trematodozlarining jug'rofiy xususiyatlari, tur tarkibi va biologik xilma-xilligi o'zgarib bormoqda. Bu borada muntazam ravishda hududlarning bioekologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda qoramollar trematodoz qo'zg'atuvchilarini tarqalish arealini aniqlash, kasalliklarning kechishi, epizootologik holati va ularga ta'sir qiluvchi ekologik hamda antropogen omillarni o'z vaqtida tahlil qilish hamda davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, trematodozlar bilan zararlangan qishloq xo'jalik hayvonlarini davolash va oldini olish usullarini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi².

Respublikamizda mustaqillik yillaridan boshlab hozirgi kunga qadar qoramolchilikni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berib kelinmoqda. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining ustuvor yo'nalishida belgilangan aholini chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu sohada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi borasida qoramollardan olinadigan mahsulotlarni, aholi istemoli uchun ekologik toza holatda yetkazib berish juda dolzarbdir. Shu sababdan Farg'ona viloyati sharoitida qoramollar orasida keng tarqalgan trematodoz kasalliklari, jumladan fassiolyoz, dikrotselioz va paramfistomatozlarning tarqalishi, sabablari, kechish xususiyatlarini aniqlash

¹ Салимов Б.С., Даминов А.С., Курбанов Ш.Х., Изатуллаев З.И., Отабоев Х.Э., Ўроков К.Х. Қишлоқ хўжалик ҳайвонларининг жигар трематодозлари, уларни даволаш ва олдини олиш чора-тадбирлари (тавсиянома). Тошкент, 2009. - 31 б.

² Азимов Д.А., Дадаев С.Д., Акрамова Ф.Д., Сапаров К.А. Гелминты жвачных животных Узбекистана. Изд-во «Фан», Ташкент, 2015. - 224 с.

ularni davolash va oldini olishda zamonaviy usul hamda vositalardan kengroq foydalanishga e'tibor qaratish zarur.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»³ farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'oriladigan, tog'oldi-tog' va cho'l-dasht biotsenozlari sharoitlarida trematodozlarning tarqalishi, epizootologiyasi, diagnostikasi, davolash va profilaktikasi, shuningdek fassioloz, dikrotselioz va qisman paramfistomatoz bo'yicha I.X.Ergashev, Sh.A.Azimov, Dj.A.Azimov, B.S.Salimov, A.O.Oripov, E.B.Shakarboyev, Sh.M.Ro'ziyev, A.S.Daminovlar tomonidan imiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy olimlardan akademik К.И.Скрябин, professorlar В.С.Эршов, Н.В.Демидов, Р.С.Шулц, Г.И.Диков, А.М.Сазанов, Я.Г.Гаджиев, Э.А.Давтян, Г.А.Григорян, М.Ш.Акбаев, М.В.Якубовский, Р.Т.Сафиуллинlar o'zlarining ilmiy faoliyatlarini hayvonlarning trematodozlarini o'rganishga bag'ishlaganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona viloyati Furqat, O'zbekiston va Beshariq tumanlari qoramolchilik fermer xo'jaliklari bilan tuzilgan (№14. 08.11.2023y.) shartnomalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Farg'ona viloyati sharoitida qoramollar trematodoz qo'zg'atuvchilarining epizootologiyasi va kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda qarshi kurash choralarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Farg'ona viloyatining sug'oriladigan va tog'oldi-tog' biotsenozlarida qoramollar trematodozlarining tur tarkibi, invaziya ekstensivligi va intensivligi darajasini aniqlash;

qoramollar trematodozlari qo'zg'atuvchilarining biologik, morfo-fiziologik va ayrim faunistik xususiyatlarini aniqlash;

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

kasallik paytida kuzatiadigan klinik, gemomorfologik, gemobiokimyoviy, immunobiologik va patologoanatomik o'zgarishlarni aniqlash asosida qoramollar trematodozlarining tashxis usullarini takomillashtirish;

Farg'ona viloyatining turli biogeotsenozlaridagi qoramollar trematodozlarini davolash va oldini olish chora-tadbirlari majmuyini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti turli yoshdagi qoramollar, ularning organlaridan yig'ilgan trematodalar, ularning tuxumlari, oraliq xo'jayinlari (suv va quruqlikda yashovchi o'pkali mollyuskalar), ulardagi parazit partenitlari, adoleskariylar, chumoli qorin bo'shlig'idagi metaserkariylar.

Tadqiqotning predmeti bo'lib qoramollarning jigar, katta qorin, to'r qorin, shirdon, ingichka ichaklaridan yig'ilgan trematodalarning taksonomiyasi va ular qo'zg'atadigan kasalliklarning epizootik holati, trematodozlarga qarshi qo'llanilgan antgelmintik preparatlarning terapevtik ta'sir xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda gelmintokoprologik, malakologik, mirmekologik, morfologik, bioekologik, organlarni to'liq gelmintologik yorish va patologoanatomik tekshirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Farg'ona viloyatining sug'oriladigan va tog'oldi-tog' biotsenozlarida turli yoshdagi qoramollar trematodozlarining tur tarkibi (fassiolyoz, gastrotilyaksoz, kalikoforoz, liorxoz), invaziya ekstensivligi va intensivlik darajasi aniqlangan;

qoramollar trematodozlari jigar hajmini kattalashganligi va qotganligi (tsirroz), oshqozon osti bezining shishganligi, jigar parenximasi yuzasining notekisligi va bir nechta teshilgan yaralar bo'lishi kabi patologoanatomik o'zgarishlar bilan xarakterlanishi tadqiqotlarda asoslangan;

trematodozlarning qoramollarda toksemiya va jigar faoliyatining buzilishlari hamda qondagi gemoglobinning 16,8%, umumiy oqsilning 8,2%, glyukozaning 13,6% va T-limfotsitlarning 19,75 % ga kamayishi, bilirubinning 44,2%, AsAT faolligining 42%, AlAT faolligining 25,0% va B- limfotsitlarning 44,4% ga oshishi bilan kechishi ilmiy asoslangan;

qoramol trematodozlarini davolash va oldini olishda zamonaviy antgelmintik preparatlar (Gelmintol, Dovermer-10%, Rolenol va Fluconix-340) ni qo'llash usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Farg'ona viloyati sharoitida qoramollarda epizootologik ahamiyatga ega bo'lgan fassiolyoz, gastrotilyaksoz, kalikoforoz, liorxoz kabi kasalliklarning patogenli asosiy qo'zg'atuvchilari va oraliq xo'jayini sifatida suvda yashovchi *Lumnaeidae* va *Planorbidea* oilasiga mansub mollyuskalar ekanligi aniqlangan;

qoramollarning fassiolyoz bilan zararlanish darajasi sug'oriladigan biotsenozlarda 35,9% (II *F.hepaticada* 157,9, *F.gigantica* 102,0), Dikrotsellyoz bilan zararlanish darajasi 70,3% (II *D. Dentriticumda* 1242,5) ni tashkil etishi aniqlangan;

F.hepatica bilan zararlanishi Farg'ona viloyatining tog'oldi va tog' hududlarida (invaziya ekstensivligi) IE 22%, II (invaziya intensivligi) 14,6 nusxani tashkil etishi aniqlangan;

qoramol trematodoz qo'zg'atuvchilarining biologik va morfo-fiziologik xususiyatlari aniqlangan;

qoramollarning trematodozlarini klinik, gemomorfologik, gemobiokimyoviy, immunobiologik va patologoanatomik o'zgarishlariga asoslanib tashxis qo'yish usullari takomillashtirilgan;

qoramol fastsiolyozini davolash, oldini olish va iqtisodiy samaradorligi aniqlangan hamda amaliyotga qo'llash uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tekshirishlarning hozirgi zamon texnologiyalari, uslub va vositalaridan foydalanilgan holda o'tkazilganligi, ma'lumotlarga ishlov berish va amaliy tahlil jarayonida, olingan tahlil natijalarining tajriba ma'lumotlari bilan mosligi, tadqiqot natijalarinig xorijiy va mahalliy tajriba natijalari bilan ilmiy tahlil qilinganligi bilan, soha mataxassislari tomonidan ilmiy tadqiqot hamda birlamchi materiallarga ijobiy fikrlar berilganligi bilan, ilmiy ishlarining natijalari ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Farg'ona viloyati sharoitidagi qoramollarda uchraydigan trematodoz qo'zg'atuvchilarining biologik, morfo-fiziologik xususiyatlari aniqlanganligi, ularning tarqalishi, fastsiolyoz tomonidan o'limga olib keluvchi o'tkir oqimining qoramollarda boshqa trematodozlardan farqlanishi hamda gastrotilyaksoz bilan birga kechganda klinik, gemomorfologik, gemobiokimyoviy, immunobiologik va patologoanatomik o'zgarishlarni aniqlash asosida tashxis qo'yish usullari aniqlanganligi, ekologik omillarning fastsiolyoz va dikrotselioz qo'zg'atuvchilarining tarqalishiga ta'sir qiluvchi xususiyatlarining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati qoramollarda paramfistomatoz va fastsiolyozning epizootologik xususiyatlari, hayvonlarning yoshiga nisbatan invaziya ekstensivligi va intensivligini o'rganilganligi, ularni davolash va oldini olishda zamonaviy antgelmintiklarni qo'llashga asoslangan usullarni ishlab chiqilganligi, davolash usullarining iqtisodiy samaradorligi aniqlanganligi hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar veterinariya amaliyotiga joriy qilinishi natijasida qoramolchilik xo'jaliklariga keltiradigan katta iqtisodiy zararining oldi olinganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg'ona viloyati sharoitida qoramollar trematodozlarining tarqalishi va oldini olish choralari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

«Qishloq xo'jalik hayvonlarining trematodozlari, ularni davolash va oldini olish choralari bo'yicha tavsiyanoma» ishlab chiqilib, respublikamizning qoramolchilik xo'jaliklariga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 08-iyuldagi 02/23-392-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni amaliyotga joriy etilishi natijasida qoramollarning trematodalar bilan zararlanishining oldini olish evaziga yuqori samaradorlikka erishilgan;

qoramollarning trematodozlarini klinik, gemomorfologik, gemobiokimyoviy, immunobiologik va patologoanatomik o'zgarishlariga asoslanib tashxis qo'yish usullari takomillashtirilgan va amaliyotga joriy etilgan

(Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 08-iyuldagi 02/23-392-son ma'lumotnomasi). Natijada qoramollar trematodoz kasalliklarini aniq va qiyosiy tashxislashga erishilgan;

qoramollar trematodozlarini davolash va oldini olishda Gelmintol, Dovermer-10%, Rolenol, va Fluconix-340 preparatlarini qo'llash usullari Farg'ona viloyatining O'zbekiston, Furqat va Beshariq tumani qoramolchilik xo'jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 08-iyuldagi 02/23-392-son ma'lumotnomasi). Natijasida, profilaktika usulining qo'llanilishi sarflangan bir so'm xarajat hisobiga 10,34 so'm iqtisodiy samara olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy maqola chop etilgan, ulardan 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 2 tasi xalqaro va 4 ta respublika ilmiy konferensiya materiallarida nashr etilgan. 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, tadqiqot natijalarining muhokamasi, xulosa, amaliyotga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarinig ishonchligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi qismida Fatsiolyozning epizootologiyasi va tarqalishi bo'yicha respublikamiz va dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan. Ikkinchi qismida Dikrotseliozning epizootologiyasi va tarqalishi to'g'risidagi ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari bayon etilgan. Uchinchi qismida Paramfistomatozning epizootologiyai va tarqalishi bo'yicha ilmiy-amaliy va nazariy ma'lumotlar keltirilgan. To'rtinchi qismida Trematodozlarning davolash hamda oldini olish choralari berilgan. Ushbu bo'limning oxirida hayvonlarda trematodozlarni aniqlash, davolash va oldini olish bo'yicha xorijiy hamda vatanimiz olimlari tomonidan e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan va zarur ilmiy xulosalarga erishilganligiga qaramasdan, Farg'ona viloyatining o'ziga xos jug'rofiy-iqlim sharoitlaridagi yirik shoxli hayvonlarda jigar

trematodozlarining tarqalishi va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqisjga qaratilgan tadqiqot natijalari mavjud adabiy manbalarda uchramaganligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlar ob'yekti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida Tadqiqotlar ob'ekti, otkazilish joyi va uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar 2022-2024 yillarda Samarqand davlat veterunariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish kafedrası huzuridagi Zooparazitologiya laboratoriyasida, Farg'ona viloyatining Furqat, O'zbekiston va Beshariq tumanlari qoramolchilik fermer xo'jaliklari sharoitlaridagi sog'lom hamda rematodozlar bilan kasallangan qoramollarda olib borilgan. Fasiolyoz va dikrotseiozdan o'lgan qoramollar gavdalari yorib ko'rish tadqiqotlari uchun foydalanilgan.

Qoramollardan olingan jigar namunalari akademik K.I.Skryabin tomonidan tavsiya etigan to'liq gelmintologik yorish va unga B.Salimov, A.Kupriyanovalarning qo'shgan qo'shimcha usullari yordamida tekshirildi.


Tadqiqotlarda shuningdek, o'rganilgan trematodalarning oraliq xo'jayinlari – suvda va quruqlikda, ammo biroz nam joylarda yashovchi limniedlar, planorbidlar va Xeropicta avlodlari vakillari ularning partenitlari bilan zararlanganlikga, Formica avlodiga mansub chumolilar esa dikrotseliyning metaserkiriylariga tekshirildi, *F.gigantica* ning tabiiy holda uning partenitlari va etilgan serkariylari bilan zaralangan *Lymnaea* (Radix) *auricularia* (L., 1738) mollyuskasida, mollyuska o'lgunga qadar, ajralib chiqadigan serkariylari va ulardan hosil bo'ladigan adoleskariylarning sutkalik ritmi o'rganildi.

Trematodalarning turli hududlarda tarqalishini o'rganishda gelmintokoprologik usullardan biri qoramollarning to'g'ri ichagidan olingan tezak namunalari ketma-ket yuvish usulida tekshirib borildi.

Trematodozlarga qarshi antgelmintiklar samaradodrligini aniqlashga qaratilgan tajribalar ikki xo'jalikda olib borildi. Shulardan birinchisi Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi "Shabboda sururi" fermer xo'jaligida golishteyn zotiga mansub bo'lgan tabiiy zararlangan qoramollarda o'tkazildi. Ajratib olingan qoramollar analog qoidalariga asosan to'rt guruhga bo'lindi. Birinchi guruhni kasallangan nazorat hayvonlari tashkil etdi. Ikkinchi guruhdagi tabiiy zararlangan qoramollarga O'zbiokombinat MChJ O'zbekiston - Buyuk Britaniya - Rossiya qo'shma korxonasi (biveco) da ishlab chiqarilgan Gelmintol (1 ml suspenziya tarkibida 75 mg albendazol va 50 mg oksiklozanid) antgelmintigidan hayvonning 10 kg tirik vazniga 1,0 ml dan ichirildi, uchinchi guruhiga Iordoniya da ishlab chiqarilgan Devormer -10% (tarkibi fenbendazol-10%) dan hayvonning har 50 kg tirik vazniga 3,75 ml dan ichirildi. To'rtinchi guruhdagi qoramollarga Gollandiya da ishlab chiqarilgan Fluconix-340 (1 ml suspenziya tarkibida 340 mg nitroksinil) preparatidan hayvonning har 50 kg tirik vazniga 1,5 ml dan ineksiya qilindi. Ikkinchi tajriba Farg'ona viloyatining Furqat tumani "Aj-Mansur" xususiy korxonasida tabiiy zararlangan golishteyn zotiga mansub qoramollarda o'tkazildi. Birinchi guruhni kasallangan nazorat hayvonlari tashkil etdi. Ikkinchi guruhdagi tabiiy zararlangan qoramollarga Rossiyada ishlab

chiqilgan Медалбен-10% antgelmintigidan 10 kg tirik vazn hisobiga 1,0 1,0 ml dan ichirildi. Uchinchi tajriba guruhiga ispaniyada ishlab chiqarilgan Rolenol preparatidan har 20 kg tirik vazn hisobiga 1,0 ml dan in'yektsiya qilindi. To'rtinchi guruhdagi qoramollarga Gollandiyada ishlab chiqarilgan Fluconix-340 (1 ml suspenziya tarkibida 340 mg nitroksinil) preparatidan hayvonning har 50 kg tirik vazniga 1,5 ml dan ineksiya qilindi. Tajriba davomida barcha qoramollar umum qabul qilingan usullar yordamida klinik hamda gemo-morfologik va gemobiokimyoviy jihatlardan nazorat qilib borildi.

Dissertatsiyaning «Fargʻona kanali oqimboʻyi hududlarida qoramollar orasida fassiolyoz va dikrotseliozning tarqalishi va epizootologik holati» deb nomlangan 3.1. boʻlimida keltirilishicha, Fargʻona viloyati Beshariq tumanining Fargʻona kanali oʻtgan hududlarida tekshirilgan qoramollar 3 turga oid trematodalar – *F.hepatica*, *F.gigantica* va *D.dendriticum* lar bilan aralash holda zararlangan. Ularning jigar toʻqimalarida 38 nusxadan 88 nusxagacha, jami 379 nusxa *F.gigantica* ning yosh, voyaga etmagan, tana uzunligi 15-25 mm atrofidagi turlari topilgan. Tekshirilgan har bir qoramolning jigar oʻt yoʻllarida tana uzunligi 28 mm dan 34 mm gacha boʻlgan 122 nusxadan 246 nusxagacha jami 123 nusxa voyaga etgan *F.hepatica* topilgan. Bunda, invaziya intensivligi (II) oʻrtacha 200 nusxani tashkil etgan. Dikrotselioz qoʻzgʻatuvchisi (*D.dendriticum*) har bir bosh qoramolda 421 nusxadan 1811 nusxagachani va oʻrtacha 1184 nusxani tashkl etishi aniqlangan.



1-rasm. Fargʻona viloyatining Furqat tumani sharoitidagi qoramollarni gelmintoooskopik tekshirish natijalari.

Viloyatning *Furqat tumanidagi* Al-Mansur X/K parvarishlanayotgan 250 bosh qoramollarning 124 boshi fassiolyoz bilan zararlangan boʻlib bunda invaziya ekstensivligi 49,6 % ni tashkil qildi. Ushbu viloyatning “Shabboda sururi” F/X da parvarishlanayotgan 310 bosh qoramollarning 117 boshi fassiolyoz bilan

kasallanganligi aniqlandi va bunda invaziya ekstensivligi 37,7% ni tashkil etdi (1-rasm).

Dissertatsiyaning «**Fargʻona viloyatining sugʻoriladigan biotsenozlarida qoramollar fassiolyozi va dikrotseliozining tarqalishi va epizootologik holati**» deb nomlangan 3.2. boʻlimida taʼkidlanishicha, tadqiqotlarda viloyatning usbu biotsenozlari sharoitlaridagi qoramlarning fassiollioz qoʻzgʻatuvchilari bilan zararlaniş invaziya ekstensivligi (IE) oʻrtacha 35,9%, invaziya intensivligi (II) 228,8 ni, shu jumladan, *F. hepatica* bilan 157,9, *F. gigantica* bilan 102 ni tashkil etishi aniqlangan. Bunda *F. hepatica* boʻlari eng yuqori zararlaniş viloyatning Uchkoʻpri (287,1) va Beshari (233,6) tumanlarida, eng past zararlaniş Oltiari (79,4) va Fargʻona (119,1) tumanlarida qayd etilgan. *F. gigantica* bilan eng yuqori zararlaniş viloyatning Uchkoʻpri (151,1) va Buvayda (140,0) tumanlarida, eng past zararlaniş Beshari (45,3) va Oʻzbekiston (67,4) tumanlarida qayd etilgan.

Viloyatning sugʻoriladigan biotsenozlarda qoramollarning dikrotselioz qoʻzgʻatuvchilari bilan zararlanişi (IE) oʻrtacha 70,3%, invaziya intensivligi (II) 1242,5 ni tashkil etdi va bunda eng yuqori zararlaniş viloyatning Furqat (1562,9) va Dangʻara (1425,6) tumanlarida, eng past zararlaniş Fargʻona (990,6) va Buvayda (1132,6) tumanlarida qayd etilgan.

Dissertatsiyaning «**Fargʻona viloyatining togʻoldi-togʻ hududlarida qoramollar fassioliozining tarqalishi va epizootologik holati**» deb nomlangan 3.3. boʻlimida aniqlanishicha, viloyatning togʻoldi-togʻ biotsenozlari sharoitlarida qoramollarning fassiollioz qoʻzgʻatuvchilari bilan zararlaniş II- 65,6, IE 22% ni tashkil etdi va bunda eng yuqori zararlaniş Oltiari (II 74,0) tumanida, eng past zararlaniş Fargʻona (60,0) tumanida qayd etildi. Bunda asosiy epizootik rolni *F. hepatica* oʻynashi va u bilan asosan bir yoshgacha boʻlgan qoramollarning zararlanişi aniqlangan.

Dissertatsiyaning «**Qoramollar fassioliozining kechishi, simptomlari, patologoanatomik oʻzgarishlari va qiyosiy tashxisi**» deb nomlangan 3.4. boʻlimida Fargʻona viloyatining sugʻoriladigan va togʻoldi hududlarida *F. hepatica* tomonidan qoʻzgʻatiladigan oʻtkir oqimdagı fassiollioz qisman yozning birinchi yarmida va undan soʻng kuz oylarida koʻproq uchrashi kuzatilishi, kasallikning oʻtkir oqimida zararlanişning 60- kundan boshlab fassiolalarning jigar oʻt yoʻliga oʻtishi, parazitning voyaga yetish davri, yaʼni uning oʻt yoʻlidan jigar toʻqimasiga oʻtish davri esa zararlanişning 70 kunlarida roʻy berishi aniqlangan. Jigar toʻqimalarida parazitlik qiluvchi bunday trematodalarning uzunligi 20 mm dan oshmasligi va ensiz boʻlishi va shu sababdan ham qoramollarda ushbu tur trematoda qoʻzgʻatgan oʻtkir oqimli fassiolliozning nisbatan yengil kechishi aniqlangan.

F. gigantica bilan qoramollarning zararlanişi avgust oyidan boshlanadi va kuzda juda kuchayadi, qishning birinchi yarmigacha davom etadi. Kasallikning oʻtkir oqimida zararlanişning 80- 90 kundan boshlab fassiolalarning oʻt yoʻllaridan uning devorini teshib, jigar toʻqimlariga oʻtishi kuzatiladi. Ularning nisbatan enli va uzunligi 27-30 mm gacha yetadi. Aynan ana shu teshib oʻtish jarayonining ogʻir kechishi va kasal qoramollarning aksariyatining oʻlimi kuzatishi aniqlangan.

Kasal qoramollarda qondagi eritrotsitlar soni dastlabki holatiga nisbatan 0,16 mln/mkl (5,0%), gemoglobin 9,04 g/l (16,8%), umumiy oqsil 5,6 g/l (8,2%), glyukoza 0,21 mmol/l (13,6%) va T-limfotsitlar 19,75 % ga kamayadi, bilirubin 1,59 mkmol/l (44,2%), AsAT faolligi 0,18 mmol.s/l. (42%), AlAT faolligi 0,04 mmol.s/l. (25,0%) va B- imfotsitlar 44,4% ga oshadi (1-jadval).

1-jadval.

Tajribadagi qoramollar qonini morfologik, biokimyoviy va immunologik tekshirish natijalari.

Ko'rsatkichlar	Me'yori	Tekshirish davri			
		Shartli sog'lom qoramollarda. 15.04. 2023	Kasallik-ning o'tkir oqimida. 15.06.2023	Kasallik-ning surunkali oqimida. 15.10.2023	P<
Eritrotsitlar, mln/mkl	12,0-18,0	4,24±0,6	4,16±0,06	4,06±0,05	0,001
Leykotsitlar, ming/mkl	8,0-17,	6,42±0,62	6,44±0,9	6,14±0,6	0,05
Gemoglobin, g/l	98-120	93,62±3,2	86,44±4,2	84,6±4,8	0,001
Umumiy oqsil, g/l	74-88	67,6±1,2	65,0±1,2	62,0±2,23	0,01
Glyukoza, mmol/l	2,34-344	1,74±0,2	1,64±0,1	1,53±0,02	0,001
Bilirubin, mkmol/l	0,8-6,3	3,62±0,16	4,18±0,12	5,21±0,38	0,01
AcAT, mmol.s.l	0,6-0,8	1,0±0,05	1,18±0,05	1,42±0,1	0,05
AlAT, mmol.s.l	0,1- 0,4	0,4±0,01	0,44±0,03	0,50±0,05	0,01
B-limfotsitlar	10-20	16,2±0,30	20,4±0,05	23,4±0,60	0,05
T-limfotsitlar	20-30	30,4±0,22	28,4±0,21	24,4±0,24	0,01
T-xelperlar	12-14	10,8±0,14	8,6±0,6	7,3±7,0	0,05
T-killerlar	16-18	16,4±0,6	16,8±0,7	11,8±1,4	0,01
T-supressorlar	7-11	7,2±0,44	6,22±0,32	4,64±0,45	0,05

Patologoanatomik tekshirishlarda qoramollar semizligining o'rtachadan pastligi, teri osti yog' qatlamining juda yupqaligi, gavdasida infiltratsiya rivojlanganligi, qorin bo'shlig'ida 2-3 litr zardob to'planganligi, jigarining hajmiga kattalashganligi, uning konsistensiyasining qotganligi (sirroz), qiyin kesilishi, oshqozon osti bezining shishganligi va kattalashganligi, o't xaltaning o't suyuqligi bilan to'lganligi, jigar parenximasi yuzasining notekisligi, unda bir nechta yarasimon teshikchalar paydo bo'lganligi aniqlanib, ularda sust harakatlanadigan yosh fassiolalar topildi.

Dissertatsiyaning «**Paramfistomatozlarning tarqalishi va epizootologik holati**» deb nomlangan 3.5. bo'limida ta'kidlanishicha, barcha paramfistomatlar fassiolidli taraqqiyot tipiga ega bo'lsada, ammo ular oraliq xo'jayinlari bilan fassiolalardan farq qiladi, xususan, paramfistomatlarning oraliq xo'jayini

g'altaksimon chig'anoqli planorbidlar, har ikkala tur fassiolalarniki esa spiral shaklli limniedlar hisoblanadi. Fargona viloyati hududlarida qoramollarning paramfistomatidlar bilan zararlanish invaziya ekstensivligi 80-100%, invaziya intensivligi 132+12,4 (118-227) nusxani tashkil etishi aniqlangan.

Tadqiqotlarda, shuningdek ilk bor qoramollarda *C.calicophorum*, *G.crumenifer* va *L.scotiea* paramfistomatlarining parazitlik qilishi va ularni mustaqil kalikoforoz, gastrotilyaksoz va liorxoz kasalliklarini qo'zg'atishi aniqlangan. Ularning barchasi oqar va turg'un suv chashmalarida yashaydi, biotoplari esa sug'oriladigan va tog'oldi-tog' hududlarida uchraydi.

Dissertatsiyaning «**Qoramollar trematodozlarida antgelmintiklar samaradorligini aniqlash**» deb nomlangan to'rtinchi bobida keltirilishicha, Trematodozlarga qarshi antgelmintiklar samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajribalar ikki xo'jalikda olib borildi. Shulardan birinchisi Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi "Shabboda sururi" fermer xo'jaligida golishteyn zotiga mansub bo'lgan tabiiy zararlangan qoramollarda o'tkazildi (2- jadval).

2-jadval.

Farg'ona viloyati Furqat tumanidagi "Shabboda sururi" naslchilik, chorvachlik ixtisoslashgan fermer xo'jaligida qoramol trematodozlariga dorilarning ta'sir etish samaradorligi

Guruhlar	Hayvon soni, bosh	Dori nomi	Dozasi	Trematodozlar tuxumi topilmadi, bosh	Samaradorlik, %
1 Nazorat	10	-	-	0	0
2 tajriba	10	Gelmintol	1 ml/10 kg	8	80
3 tajriba	10	Devormer - 10% ,	3,75 ml /50 kg	9	90
4 tajriba	10	Fluconix-340	1,5 ml /50 kg	10	100

Tajribalar uchun ajratib olingan qoramollar analog qoidalariga asosan to'rt guruhga bo'lindi. Birinchi guruhni kasallangan nazorat hayvonlari tashkil etdi. Ikkinchi guruhdagi tabiiy zararlangan qoramollarga O'zbiokombinat MChJ O'zbekiston - Buyuk Britaniya - Rossiya qo'shma korxonasi (biveco) da ishlab chiqarilgan Gelmintol (1 ml suspenziya tarkibida 75 mg albendazol va 50 mg oksiklozanid) antgelmintigidan hayvonning 10 kg tirik vazniga 1,0 ml dan ichirildi, uchinchi guruhiga Iordoniya da ishlab chiqarilgan Devormer -10% (tarkibi fenbendazol-10%) dan hayvonning har 50 kg tirik vazniga 3,75 ml dan ichirildi. To'rtinchi guruhdagi qoramollarga Gollandiyada ishlab chiqarilgan Fluconix-340 (1 ml suspenziya tarkibida 340 mg nitroksinil) preparatidan hayvonning har 50 kg tirik vazniga 1,5 ml dan ineksiya qilindi. Antgelmintiklar berilgandan 14 kun o'tgach tajribadagi qoramollardan tezak namunalari yig'ib

olindi va gelmintokoprologik usullaridan ketma-ket yuvish va Fyulleborn usullari bo'yicha tekshirildi.

Gelmintsizlantirish o'tkazilgandan so'ng 14 kun o'tgach birinchi (nazorat) guruhdagi qoramollardan tezak namunalari olinib ketma ket yuvish usulida tekshirilganda hammasida trematoda tuxumlari topildi. Ikkinchi guruhda 8 bosh qoramolda trematodlar tuxumlari topilmadi va Gelmintol antgelmintigining samaradorligi 80 foizni tashkil etdi. Uchinchi tajriba guruhiga Devormer -10% antgelmintigi berilgan qoramollarning 9 boshida trematodlar tuxumlari topilmadi, 1 bosh qoramolda Fassiola tuxumlari borligi qayd etildi va bunda dorining samaradorligi 90 foizni tashkil etdi. To'rtinchi tajriba guruxidagi Fluconix-340 antgelmintigi berilgan qoramollarda trematodlar tuxumlari topilmadi va samaradorlik 100 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi tajriba Farg'ona viloyatining Furqat tumani "Al-Mansur" xususiy korxonasida tabiiy zararlangan golishteyn zotiga mansub bo'lgan qoramollarda o'tkazildi. Tajriba natijalari 3-jadvalda berilgan.

3-jadval.

Farg'ona viloyati Furqat tumanidagi "Al-Mansur" naslchilik, chorvachlik ixtisoslashgan xususiy korxonacida qoramol trematodozlariga dorilarning ta'sir etish samaradorligi

Guruh-lar	Hayvon soni, bosh	Dori nomi	Dozasi	Trematodoz tuxumi topilmadi, bosh	Samara-dorlik, %
1 Nazorat	10	-	-	0	0
2 tajriba	10	Mesalben-10%	1ml /10kg	8	80
3 tajriba	10	Rolenol	1ml /20 kg	9	90
4 tajriba	10	Fluconix-340	1,5ml /50 kg	10	100

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajribalarda tabiiy sharoitda jigar trematodozlari, jumladan fassiolyoz bilan zararlangan 40 bosh qoramol tanlab olindi va ular 10 boshdan 4 guruhga ajratildi. Birinchi guruhdagi tabiiy zararlangan qoramollar nazorat bo'lib xizmat qildi. Ikkinchi guruhdagi tabiiy zararlangan qoramollarga Rossiyada ishlab chiqarilgan Mesalben-10% antgelmintigidan 10 kg tirik vazniga 1,0 ml dan ichirildi. Uchinchi tajriba guruhiga Ispaniyada ishlab chiqarilgan Rolanol preparatidan har bir bosh qoramolning har 20 kg tirik vazniga 1,0 ml ineksiya qilindi. To'rtinchi guruhdagi qoramollarga Gollandiyada ishlab chiqarilgan Fluconix-340 (1 ml suspenziya tarkibida 340 mg nitroksinil) preparatidan qoramollariga 50 kg tirik vazniga 1,5 ml ineksiya qilindi. Antgelmintiklar berilgandan 14 kun o'tgach tajribadagi qoramollar tezak


namunalari yig'ib olindi va tezak namunalari gelmintokoprologik tekshiruv usullaridan ketma-ket yuvish usuli boyicha tekshirildi.

Gelmintsizlantirish o'tkazilgandan so'ng 14 kun o'tgach birinchi guruhdagi qoramollardan tezak namunalari olinib ketma ket yuvish usulida tekshirilganda ularning hammasidan trematod tuxumlari topildi. Ikkinchi guruhda 7 bosh qoramolda trematodlar tuxumlari topilmadi va samaradorlik 70% ni tashkil etdi. Uchinchi guruhda 8 bosh qoramolda trematod tuxumlari topilmadi va bunda (Mesalben-10%) antgelmintikning samaradorligi 80 foizni tashkil etdi. Uchinchi guruhda (Rolenol) gi qoramollarning 9 boshida trematod tuxumlari topilmadi va antgelmintikning samaradorligi 90 foizni tashkil etdi. To'rtinchi guruhda (Fluconix-340) antgelmintik berilgan qoramollarda trematodlar tuxumlari topilmadi va samaradorlik 100 foizni tashkil etdi.


Dissertatsiyaning **«Antgelmintik vositalarning fatsiolyoz bilan kasallangan sigirlarda qonining ayrim morfo-biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri»** deb nomlangan 4.2. bo'limida qoramollar fatsioleziga qarshi ishlatilgan antgelmintiklarning qonining ayrim morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qoramollar fatsiolyoziga qarshi ishlatilgan antgelmintiklar orasida eng yaxshi samara bergan Fluconix-340 preparati bilan eng past samara bergan nazorat guruhida qonining ayrim morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri o'zaro taqqoslanganda tajribaning 30-kuniga kelib Fluconix-340 ishlatilgan guruhdagi qoramollar qonining ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi sigirlar qonining ko'rsatkichlariga nisbatan ijobiy o'zgarishlarni namoyon qildi, ya'ni Fluconix-340 ishlatilgan guruhda qondagi eritrotsitlar soni tajribaning 30-kuniga kelib tajriba boshidagiga nisbatan 2,52 mln/mkl (41,0%), gemoglobinning 11,8 g/l (14,0%), umumiy oqsilning 9,6 g/l (15,0%), glyukozaning 0,72 mmol/l (41,3%) va T-limfotsitlarning 29,1% ga oshishi ($P<0,01$), leykotsitlarning 0,12 ming/mkl (0,9%), bilirubinning 2,09 mkmol/l (38,8%), AsAT faolligining 0,14 mmol.s.l (16,7%), AlAT faolligining 0,22 mmol.s.l (34,6%) va B-limfotsitlarning 19,5% ga kamayishi ($P<0,05$) kuzatildi.


Nazorat guruhida eritrotsitlar soni tajribaning 30-kuniga kelib tajriba boshidagiga nisbatan 1,0 mln/mkl (16,4%), gemoglobinning 8,0 g/l (9,3%), umumiy oqsilning 6,0 g/l (10,0%), glyukozaning 0,12 mmol/l (7,2%) va T-limfotsitlarning 10,0% ga kamayishi ($P<0,05$), leykotsitlarning 0,40 ming/mkl (5,8%), bilirubinning 0,43 mkmol/l (7,4%), AsAT faolligining 0,45 mmol.s.l (73,0%), AlAT faolligining 0,20 mmol.s.l (40,0%) va B-limfotsitlarning 28,0% ga oshishi ($P<0,05$) kuzatildi.



2-rasm. Antelmintik vositalarning Fatsiolyoz bilan kasallangan sigirlarda qonining ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri



3-rasm. Antelmintik vositalarning Fatsiolyoz bilan kasallangan sigirlarda qonining ayrim morfo-biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri



4-rasm. Antгельmintik vositalarning fatsiolyoz bilan kasallangan sigirlar qonidagi ALAT va AcAT fermentlari faolligiga ta'siri.

Demak, Fluconix-340 preparatning ishlatilishi qoramollar fatsiolyoziga qarshi yuqori terapevtik samara beruvchi antгельmintik sifatida ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda organizmda kechadigan oksidlanish-qaytarilish, zararsizlantirish, gemopoez va immunitet jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi va qondagi eritrotsitlar sonining 2,52 mln/mkl (41,0%), gemoglobinning 11,8 g/l (14,0%), umumiy oqsilning 9,6 g/l (15,0%), glyukozaning 0,72 mmol/l (41,3%) va T-limfotsitlarning 29,1% ga oshishi ($P < 0,01$), shuningdek, leykotsitlarning 0,12 ming/mkl (0,9%), bilirubinning 2,09 mkmol/l (38,8%), AsAT faolligining 0,14 mmol.s.l (16,7%), ALAT faolligining 0,22 mmol.s.l (34,6%) va B-limfotsitlarning 19,5% ga kamayishi ($P < 0,05$) ga olib keladi.

Ishning iqtisodiy samaradorligi. Qoramollar fatsiolyoziga qarshi Fluconix-340 preparati yordamida gijjasilantirish tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi har bosh ishlov berilgan sigir hisobiga o'rtacha bir yilda 9043886 somni va bunda xarajatlar qoplami 10,34 so'mni tashkil etishi tadqiqotlarda aniqlandi.

XULOSALAR

1. Farg'ona viloyatining Farg'ona kanali oqimi hududlari sharoitidagi qoramollarda jigar trematodozlarining aralash shaklda uchrashi, ya'ni Rishton tumanining kanal bo'yi hududlarida bunday zararlanish o'rtacha 35% (II *F.hepaticada* 61,7, *D.dendriticumda* 15,2), O'zbekiston tumanida 40%, (II *F.hepaticada* 65,0, *D.dendriticumda* 18,8), Beshariq tumanida 75% (II

F.hepaticada 200,0, *F.gigantica* 63,0, *D.dendriticum*da 1184)ni tashkil etishi kuzatilgan bo'lsa, Furqat tumanining bunday hududlarida qoramollarning faqat *F.hepatica* bilan zararlanganligi (IE 43,6%, II 121 nusxa) kuzatildi.

2. Farg'ona viloyatining sug'oriladigan bitsenozlarida qoramollarning Fassioloz bilan zararlanish darajasi 35,9% (II *F.hepaticada* 157,9, *F.gigantica* 102,0) Dikrotsellyoz bilan zararlanish darajasi 70,3% (II *D. Dendriticum*da 1242,5) ni tashkil etishi aniqlandi.

3. Farg'ona viloyatining tog'oldi va tog' hududlarida qoramollar jigar trematodozlaridan faqat *F.hepatica* bilan zararlangan bo'lib bunda (invaziya ekstensivligi) IE 22%, II (invaziya intensivligi) 14,6 nusxani tashkil etadi.

4. Farg'ona viloyati sharoitlaridagi qoramollarda *F. hepatica* tomonidan qo'zg'atiladigan o'tkir oqimdagi fassioloz qisman yozning birinchi yarmida va undan so'ng kuz oylarida ko'proq uchrashi va kasallikning o'tkir oqimida zararlanishning 60 - kundan boshlab fassiolalarning jigar o't yo'liga o'tishi kuzatildi, parazitning voyaga yetish davri, ya'ni uning o't yo'lidan jigar to'qimasiga o'tish davri esa zararlanishning 70 kunlarida ro'y beradi. Jigar to'qimalarida parazitlik qiluvchi bunday trematodalarning uzunligi 20 mm dan oshmasligi va enining ensiz bo'lishi qoramollarda ushbu tur trematoda qo'zg'atgan o'tkir oqimli fassiolozning nisbatan yengil kichishiga sabab bo'ladi.

5. Farg'ona viloyati sharoitlarida qoramollarning *F.gigantica* bilan zararlanishi avgust oyidan boshlanadi va kuzda juda kuchayadi, qishning birinchi yarmigacha davom etadi. Kasallikning o'tkir oqimida zararlanishning 80- 90 kundan boshlab fassiolalarning o't yo'llaridan uning devorini teshib, jigar to'qimlariga o'tishi kuzatiladi. Ularning eni nisbatan enli va uzunligi 27-30 mmgacha bo'ladi. Aynan ana shu teshib o'tish jarayoni og'ir kechadi va kasal qoramollarning aksariyatini o'limga olib keladi.

6. Trematodozlar paytida qoramollarda toksemiya, oksidlanish-qaytarilish jarayonlari va jigar faoliyatining buzilishlari, shuningdek, ishtahaning pasayishi, umumiy holsizlanish, kam harakatchanlik, tishlarni g'ijirlatish va mahsuldorlikning keskin pasayishi, gavdaning jag' osti va to'sh sohalarida xamirsimon shishlarning paydo bo'lishi, qonda eritrotsitlarning 5,0%, gemoglobinning 16,8%, umumiy oqsilning 8,2%, glyukozaning 13,6% va T-limfotsitlarning 19,75 % ga kamayishi, shuningdek, bilirubinning 44,2%, AsAT faolligining 42%, AlAT faolligining 25,0% va B- limfotsitlarning 44,4% ga oshishi kuzatildi.

7. Trematodozlar bilan kasallanib o'lgan qoramol gavdasi patologoanatomik yorib ko'rilganda semizlikning o'rtachadan pastligi, teri osti yog' qatlamining juda yupqalashganligi va infiltrat to'planganligi, qorin bo'shlig'ida 2-3 litr atrofida zardob to'planganligi, jigarning hajmiga kattalashganligi va qotganligi (tsirroz), oshqozon osti bezining shishganligi, o't xaltaning o't suyuqligi bilan to'lganligi, jigar parenximasi yuzasining notekisligi va bir nechta teshik yaralarning paydo bo'lishi va ularning ayrimlarida harakati sust yosh fassiolalarning bo'lishi bilan tavsiflandi. Bunda, dikrotsellyoz qo'zg'atuvchisi yosh fassiolalarga nisbatan ancha mayda va qoramol tusda bo'ladi va ular o't yo'llaridan jigar to'qimasiga o'ta

olmaydi va jigar parenximasining butunligi saqlanadi, jigar hajmi uncha o'zgarmaydi, qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planmaydi.

8. Qoramollarning trematodoz qo'zg'atuvchilariga qarshi antgelmintik vositalaridan O'zbiokombinat MChJ O'zbekiston - Buyuk Britaniya - Rossiya qo'shma korxonasi (Biveco) da ishlab chiqarilgan Gelmintol- 80%, Iordoniya da ishlab chiqarilgan DEVORMER 10% va 90%), Gollandiyada ishlab chiqarilgan FLUCONIX-340 preparatlarini qo'llashning antgemintik samaradorligi 100% ni tashkil etishi tadqiqotlarda aniqlandi.

9. Fluconix-340 preparatining ishlatilishi qoramollar fassiolyoziga qarshi yuqori terapevtik samara beruvchi antgelmintik sifatida ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda organizmda kechadigan oksidlanish-qaytarilish, zararsizlantirish, gemopoez va immunitet jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi va qondagi eritrotsitlar sonining 2,52 mln/mkl (41,0%), gemoglobinning 11,8 g/l (14,0%), umumiy oqsilning 9,6 g/l (15,0%), glyukozaning 0,72 mmol/l (41,3%) va T-limfotsitlarning 29,1% ga oshishi ($P < 0,01$), shuningdek, leykotsitlarning 0,12 ming/mkl (0,9%), bilirubinning 2,09 mkmol/l (38,8%), AsAT faolligining 0,14 mmol.s.l (16,7%), AlAT faolligining 0,22 mmol.s.l (34,6%) va B-limfotsitlarning 19,5% ga kamayishi ($P < 0,05$) ga olib keladi.

10. Qoramollar trematodozlariga qarshi kurashishda ishlatilgan Flyuconix-340 antgelmintik preparatini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi 9043886 so'mni, sarflangan bir so'm xarajat hisobiga o'rtacha 10,34 so'm ni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.06/30.12.2019.V.12.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВЕТЕРИНАРНОЙ
МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

РАЙИМОВ ОХУНЖОН ХАМИД УГЛИ

**РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ПРОФИЛАКТИКА ТРЕМАТОДОЗОВ
КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ
ОБЛАСТИ**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ВЕТЕРИНАРНЫМ НАУКАМ**

Самарканд – 2025

Тема диссертации на степень доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.4.PhD/V70

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ssuv.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Тайлаков Толип Исакулович
доктор ветеринарных наук, доцент

Официальные оппоненты:

Мавлонов Собир Ибодуллаевич
доктор ветеринарных наук, профессор

Исаев Джасур Музаффарович
доктор философии (PhD) по ветеринарным наукам,
доцент

Ведущая организация:


Научно-исследовательский институт микробиологии,
вирусологии, инфекционных и паразитарных
заболеваний им. И.М. Исаева при СамГМУ


Защита состоится «6» 09 2025 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.06/30.12.2019.V.12.01 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77, Тел.: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий (зарегистрирована за № 14344) (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77., Тел./ факс: (99866) 234-76-86, e-mail: ssuv@edu.uz).

Автореферат разослан «22» 08 2025 г.
(протокол рассылки № 2 от «22» 08 2025 г.)




Х.Б. Юнусов
Председатель научного совета по
присуждению учёной степени,
д.биол.н., профессор


К.Х. Уроков
Учёный секретарь научного совета по
присуждению учёной степени, д.вет.н.
(PhD), доцент


К.Н. Норбоев
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, д.вет.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

